Samarqand davlat pedagogika instituti "Milliy g'oya va falsafa" kafedrasida tayyorlangan 60111100 – Tarix ta'lim yo'nalishi bakalavr o'tiladigan "Tarix falsafasi va metodologiyasi" fanidan tuzilgan fan dasturiga

TAQRIZ

Falsafa va tarixning tarixiy jarayonda uzviy aloqadorligini, uning shaxs va jamiyat taraqqiyotida ma'naviy-ahloqiy va madaniy dunyoqarashini shakllantirishda qo'shgan hissasini falsafiy ilmiy metodlarini o'zlashtirish bakalavr talabalar uchun juda muhimdir. Shu bois ushbbu fan dasturi oliy ta'lim tizimda 60111100-Tarix ta'lim yo'nalishiga 4-kurs talabalari uchun o'tiladigan "Tarix falsafasi va metodologiyasi" fanining mazmuni va o'tilishi tartibini, talabalar tomonidan o'zlashtirilishi lozim bo'lgan bilim hamda ko'nikmalar hajmini belgilab bergan. Fan bo'ycha tuzilgan bu o'quv dasturi fanning maqsadi, vazifalari, o'quv fani mazmunining qisqa bayoni, talabalarning bilimi va ko'nikmalariga qo'yiladigan talabalar singari bir qator qisimlardan iborat. Xususan o'quv fanning maqsad va vazifalarini belglab berish o'quv dasturining muhim belgisidir. Chunki aynan shu narsa yarattladigan o'quv darsligi muallifga muayyan nuqtai nazarni tanlash, o'qituvchiga esa pedagogik mo'ljalini to'g'ri belgilash imkonini beradi.

Dastur fanning mazmuni, talabalar bilimi, ko'nikma va malakalariga qo'yilgan talabalar, bo'lajak pedagoglarning kelgusidagi kasb faoliyati uchun mos keladigan nazariy tushunchalarni o'z ichiga olgan.

Dastur Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi tomonidan 2025-yil uchun tasdiqlangan xalqaro e'tirof etilgan tashkilotlarning "Lomonosov nomidagi Moskva Davlat universitetining "Ijtimoiy gumanitar fanlar fakultetida otiladigan Tarix va falsafa" fan dasturi tahlil qilinib ushbu asosda fan dastur ishlab chiqildi. "Tarix falsafasi va metodologiyasi" fanining dasturi tayyorlanib 2 ta mavzusi yangilangan.

Shuningdek mustaqil ta'lim shakllari va mavzulari, fanni o'qitish natijalari, ta'lim texnologiyalari va metodlari hamda asosiy qo'shimcha adabiyotlar batafsil bayon etilgan. Talabalarda umumiy dunyoqarashni shakllantirishda falsafa va tarix nisbati haqida oqilona, ilmiy hulosalar chiqara olish qobiliyatini shakllantirish "Tarix falsafasi va metodologiyasi" fanining asosini tashkil etadi.

Ushbu o'quv dasturi mazmuni va tuzilishi jihatdan o'quv dasturlariga qo'yiladigan barcha talablarga javob beradi deb hisoblayman va uni tegishli ta'lim yo'nalishlari talabalari uchun ta'lim jarayonida foydalanishga tavsiya etaman.

O'zbekiston-Finlandiya pedagogika instituti "Milliy g'oya va falsafa" kafedrasi dotsenti **U.J.Nurmatova**

NING IMZOSI
TASDIQLAYMAN
O'ZBEKISTON-FINLANDIYA
PEDAGOGIKA INSTITUTI
YODIMLAR BO'LIMI

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI VAZIRLIGI
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
SAMARQAND DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI

Ro'yxatga olindi:
№ BD 134
2025 yil "18" avgust

"TASDIQLAYMAN"
Samarqand davlat pedagogika instituti
rektori
_____ Sh.Sh. Negmatova
2025 yil "___"

TARIX FALSAFASI VA METODOLOGIYASI FANINING O'QUV DASTURI

Bilim sohasi: **100000 - Ta'lim**
Ta'lim sohasi: **110000 – Ta'lim**
Ta'lim yo'nalishi: **60111100 – Tarix yo'nalishi**

Samarqand – 2025

Fan/mavzu kodi TF3504	O‘quv yili 2025-2026	Semestr V	Kreditlar 4
Fan/mavzu turi Tanlov	Ta’lim tili O‘zbek.		Haftadagi dars soatlari 4

Fanning nomi	Auditoriya mashg‘ulotlari (soat)	Mustaqil ta’lim (soat)	Jami yuklama (soat)
Tarix falsafasi va metodologiyasi	60 (30/30)	60	120

I. Fanning mazmuni

Fanni o‘qitishdan maqsad – Talabalarga tarix falsafasi tushunchasi, tarix falsafasi va metodologiyasi vazifasi eng avvalo tarix aniqlovchisi va tarixiy tadqiq usullarini eng qadimgi davrdan hozirgi kunlargacha bo‘lgan jarayoni va jamiyatning rivojlanishiga qo‘shgan hissasi va ahamiyati bilan belgilangan. Ayniqsa tarix ma’nosi falsafiy dunyoqarash masalasi sifatida chuqur o‘rganiladi.

Fanning vazifasi – Talabalarni tarixiy jaroyonlardan xulosalar keltirish, mantiqiy fikrlash va falsafiy mushohada etishga bilim va ko‘nikmalarini shakllantirish. Fan va ta’lim integratsiyasi mazmun mohiyatidan kelib chiqqan holda innovatsiyalarni ta’lim tizimiga keng jalb etish, zamonaviy axborot-kommunikatsiya tizimidan keng foydalanishdan iborat.

II. Nazariy qism (ma’ruza mashg‘ulotlari)

I. Fan tarkibiga quyidagi mavzular kiradi:

1-MODUL. 1-mavzu. Tarix falsafasiga kirish. Tarix falsafasi fani maqsad va vazifalari. Tarix metodologiyasi.

Tarix falsafasi tushunchasi. Tarix falsafasining fan sifatida shakllanishi.Tarix falsafasining maqsadlari va vazifalari. Tarix fani. Tarix fanining usullari.Tarixning mohiyati, uning predmeti, metodi va ahamiyati. Tarixni tavsiflash.Tarix ma’nosi falsafiy dunyoqarash masala sifatida. Klassika va hozirgi zamon: tarix ma’nosiga ikki yondashuv. Tarixiy ong va tarix. Tarixiy ongning ikki tomoni.

2- mavzu. Tarix falsafasining qonuniyatlari va asosiy tamoyillari.

Tarix falsafasining ob’ekti va metodologiyasi Tarix falsafasi va tarixni o‘rganish. Kishilik jamiyati haqidagi tasavvurlar. Tarixiy dalil va ilmiy tahlil. Tarixiy dunyoqarash va tarix falsafasi. Tarix va germenevtika. Tarixiy jarayon va vorisiylik. Tarix falsafasida an’anaviylik va zamonaviylik.

3- mavzu. Inson fenomeni: diniy va dunyoviy talqin.

Naturfilosoflar, Tarix falsafasining aksilogik konsepsiyasi. Raymon Ayron, “Tanqiqdiy tarix falsafasi.”, Vilgelm Diltey.

4- mavzu.Tarixiy borliqning bilim obyekti. Ontologiya masalasi.

Ontologiya borliq haqidagi ta’limot. Borliqning umumiy asoslari, prinsiplari, uning shakllari va qonuniyatlari. Borliq atributlari, borliqni mexanistik, metafizik va materialistik, moddiylik bilan, aktual mavjudlik bilan, reallik, Tarixiy jarayonlarning makon va zamondagi tahlili.

2-MODUL. 5- mavzu.Qadimgi dunyo tarixi falsafasi.

Ilk falsafiy ta’limotlar qadimiy Hindiston, Xitoy, Markaziy Osiyo va Yunonistonda tarixiy va falsafiy fikrlarning vujudga kelishi. G‘arb mamlakatlaridagi tarixiy falsafiy bilimlar ibtidosi. Qadimiy Hindistondagi falsafiy maktablar Qadimiy Xitoydagi dastlabki falsafiy ta’limotlar miloddan avvalgi VII asrda vujudga kelishi tarixiy shart- sharoitlar. Konfutsiy „Aforizm“lari, daosizm. Markaziy Osiyodagi falsafiy Avesto. Sharq xalqlarining tabiatning asosiy unsurlari yer, suv, havo va olovni e’zozlash haqidagi naturfalsafiy qarashlari va g‘oyalari Yaqin va O‘rta Sharq mamlakatlariga keng yoyilib qadimiy Misr, Bobil, Lidiya mamlakatlari xalqlarining tafakkur tarziga singib ketgan. Yunonistonning ilk falsafiy maktabi – Milet maktabi ham o‘z g‘oyalarini Sharqdan olganligi.

6- mavzu. Tarixning antik davri falsafasi.

Antik ongda tabiat va tarix antitezasi. Antik kosmos: fazo. Antik kosmos: vaqt. Teokratik tarix va afsona. Gerodot tomonidan ilmiy tarixning yaratilishi. Yunon tafakkurining antitarixiy (tarixga zid) yo‘nalishi. Tarixning predmeti va ahamiyati haqidagi yunon ta’limoti. Yunoniston tarixiy usuli va uning chegaralari. Gerodot va Fukidid. Ellinizm davri. Polibiy. Rim tarixchilari. Liviy va Tatsit. Korneliy. Yunon-rim tarixshunosligining tavsifiy xususiyatlari. Insonparvarlik. Substansionallik.

3-MODUL. 7- mavzu. Islom teologiyasi va tarix falsafasi. Musulmon tarix teologiyasining tavsifiy xususiyatlari. Dunyo va insonning yaratilishi. Qur’on Koinot, er, tabiat to‘g‘risida. Musulmon providensializmi. Qur’on bo‘yicha insoniyat tarixi. Musulmon tarixshunosligining tavsifiy xislatlari

8- mavzu. Uyg‘onish davrining tarix falsafasi. XIV-XVI asrlar. Uyg‘onish davri dunyoqarashining tavsifiy xislatlari. Uyg‘onish davri insonparvarligi. Jamiyat va shaxs. Uyg‘onish davri tarixchiligi. Tarixiy vaqtning ochilishi (kashf qilinishi). Uyg‘onish davrida tarixiy fikrning asosiy yo‘nalishlari. A.Valla. F.Patritsi. L.Leruaa. N.Makiavelili. J.Boden.

4-MODUL.9- mavzu. Amir Temur davri tarix falsafasi.

Amir Temur va Temuriylar davlatining tashkil topishi. Ijtimoiy- iqtisodiy, siyosiy va madaniy hayotdagi muhim voqealar. Amir Temur davri tarixi manbalarida falsafiy qarashlar, Jahon nigohida Temuriylar davrining tutgan o`rni.

10- mavzu. Tasavvuf falsafasi va yetakchi g'oyalari

Islom tarixida tasavvuf. Tasavvuf tariqatlari. Zamonaviy davrda so'fiylik tariqatlari. Naqshbandiya, Kubraviya, Yassaviya tariqatlari. Abdulqodir Jiloniy, G'azzoliy va Sulton Salohiddin kabi islomning eng ko'zga ko'ringan himoyachilarining so'fiylik qarashlari.

5-MODUL. 11- mavzu. XI-XV asrlarda sharqda va g'arbda gumanitar bilimlarning shakllanishi va o'ziga xosligi

Gumanitar bilimlarning o'ziga xosligi. Ijtimoiy va gumanitar bilim. Gumanitar usul muammosi bilim. Tushuntirish va tushunish. Hayot tushunchasi va uning antinaturalizm rivojlanishidagi o'rni tadqiqot dasturi. Hayot, tabiat, madaniyat. Ijtimoiy-gumanitar bilimlarda tarixiylik tamoyili. Ijtimoiy-gumanitar sohada faoliyat printsipi bilim.

12- mavzu. Jadid ma'rifatparvarlarining falsafiy qarashlari.

O'rta Osiyoda ma'rifatparvarlik harakati, Chig'atoy gurungi" "Tarbiyati atfol", "Umid", "Nashri maorif", "Barakat", "G'ayrat", "Taraqqiy parvar" kabi dastlabki ijtimoiy-siyosiy, ilmiy jamiyatlar tuzildi. Bu jamiyatlar gazeta va jurnallar chop etib xalqning ma'naviy ongini oshirishga va mafkuraviy salohiyatini ko'tarishga intildi. Jadidlarning bevosita rahbarligida Toshkentda "Taraqqiy", "Shuhrat", "Xurshid", "Sadoyi Turkiston", Samarqandda "Samarqand", "Oyna", "Hurriyat", "Shu'lai Inqilob", "Mehnatkashlar tovushi", "Bolalar yo'ldoshi", "Tayoq majmuasi", davriy "Sharq", "Yosh kuch", "Zarafshon", Buxoroda "Turon", "Buxoroi Sharif", Qo'qonda "Sadoyi Farg'ona" kabi o'nlab gazeta va jurnallar nashrlari. Jadidlar faoliyati, maqsadlari.

13- mavzu. Sovet tarix fanining falsafiy muammolari.

Kollektivizm va individualizm. Totalitarizmning ijtimoiy-siyosiy va tarixy talqini. G'oyaviy hukmdorlik, yakka shaxs fikrining ustuvorligi, diktatura maqomi. Zo'ravonlik va xudbinlik, avtoritar axloq, fuqarolar manfaatlari. Partiyaviy hayotning kommunistik shakli. Kommunistlar fikrlar xilma-xilligi.

14- mavzu. Mustaqil O'zbekistonda tarix falsafasi.

Buyuk davlat va siyosat arbobi I.A.Karimovning asarlari. Barkamol insonni shakllantirishda tarixning tutgan o'rni. Tarix – xalq xotirasi. Tarixning milliy g'oya va

milliy mafkuraning shakllanishida tutgan o'rni. Tarix va milliy taraqqiyot masalalari. Mustaqillik va tarixga yangicha nazar. Tarixni xolisona o'rganish masalalari. Milliy istiqlol va g'oyaviy-siyosiy dunyoqarash. Vatanparvarlik g'oyasi va tarix. Milliy o'zlikni anglashda tarixni tutgan o'rni. Tarixiy va falsafiy merosni o'rganish masalalari. Tarix va milliy tafakkurning shakllanishi. Tarix va ma'naviyat. Milliy va umuminson qadriyatlar. Insonparvarlik g'oyasi va tarix. Dunyoviy tafakkur va milliy xavfsizlik.

15- mavzu. Globallashuv sharoitida qadriyatlar falsafasi

Mentalitet tushunchasi, aksilogik qadriyatlar, texnika inqilobi, Sharq falsafasidagi axloqiy qadriyatlar va ma'naviy-madaniy taraqqiyot. Tarixiy tarbiya, falsafiy tafakkurning yoshlar tarbiyasidagi ahamiyati.

III. Seminar mashg'ulotlar bo'yicha ko'rsatma va tavsiyalar

Seminar mashg'ulotlar uchun quyidagi mavzular tavsiya etiladi:

1. Tarix falsafasi fani maqsad va vazifalari. Tarix metodologiyasi.
2. Qadimgi dunyo tarixi falsafasi
3. Antik davr tarix falsafasi
4. Inson fenonimi. Diniy dunyoviy qarashlar.
5. Ilk xristianlikda teologiya tarixi.
6. Musulmon teologiyasi va tarix falsafasi
7. Demokratiya va tarixiy jarayon
8. IX-XII-asrlar O`rta Osiyo tarix falsafasi
9. Uyg'onish davri tarix falsafasi
10. Amir Temur davri tarix falsafasi
11. XI-XV asrlarda sharqda va g'arbda gumanitar bilimlarning shakllanishi va o'ziga xosligi
12. Tasavvuf falsafasi va yetakchi g oyalari
13. Jadid ma'rifatparvarlarining falsafiy qarashlari.
14. Mustaqillik yillarida tarix falsafasi va tarixiy davr
15. Globallashuv sharoitida qadriyatlar falsafasi

Ushbu bo'limda olingan nazariy bilimlar natijasida talabalar fan jahon falsafiy-tarixiy tafakkurining qadimdan to hozirgi kungacha bo'lgan rivojlanishining asosiy omillari va yo'nalishlarini yoritishga qaratilgan. Taqdim etilgan kurs tarixchi talabalarning nazariy – uslubiy saviyasini oshirishda jahonda ro'y berayotgan tarixiy jarayonlarni chuqur o'rganishdagi asosiy konseptual yondashuvlar bilan tanishishda katta ahamiyat kasb etadi. Talaba-yoshlarning tarixiy dunyoqarashini boyitish, ularda mustaqil fikrni qaror toptirish, tarixni mukammal darajada bilish, insoniyat sivilizasiyasining yutuqlaridan va tajribasidan to'la bahramand bo'lish, umuminsoniy qadriyatlarni anglab yetishga ko'maklashish va

dunyo miqyosida mavjud bo'lgan muammolarning tarixiy ildizlarini izlab topish kabi dolzarb masalalarni o'rganadi.

IV. Mustaqil ta'lim va mustaqil ishlar

Auditoriyadan tashqari vaqtda bajariladigan mustaqil ishlar quyidagi turlarda amalga oshirilishi tavsiya etiladi:

- Mavzuni og'zaki bayon qilish;
- 4 javobli test savoli tayyorlash;
- yozma savol tayyorlash;
- Taqdimot tayyorlash;
- Referat tayyorlash;
- rasmli topshiriq tuzish;
- Ma'lumotlarni jadval ko'rinishida ifodalash;
- Yozuvsiz xarita bilan ishlash;
- Videorolik tayyorlash;
- Ko'rgazmali qurol tayyorlash;
- Bir soatlik dars ishanma tayyorlash;
- Krassvord tuzish;
- Xorijiy adabiyotlardan ma'lumotlarni to'plash, tarjima qilish va tahlil qilish;
- Ha, yo'q javobli test tuzish;
- Audio dars tayyorlash;
- Internet ma'lumotlarini to'plash va tahlil qilish;
- Adabiyotlar ro'yxatini tuzish;

Mustaqil ta'lim uchun tavsiya etiladigan mavzulari:

1.Tarix falsafasi fani maqsad va vazifalari. Tarix metodologiyasi.
2. Qadimgi dunyo tarixi falsafasi
3. Antik davr tarix falsafasi
4. Qadimgi Xitoy va Hind tarix falsafasi
5. Ilk xristianlikda teologiya tarixi.
6. Musulmon teologiyasi va tarix falsafasi
7. O'rta asrlar tarix teologiyasi
8. IX-XII-asrlar O`rta Osiyo tarix falsafasi
9. Uyg'onish davri tarix falsafasi
10. Amir Temur davri tarix falsafasi
11. Temuriylar davri taeix falsafasi
12. XVII-XVIII asrlar ma'rifatparvar tarix falsafasi
13. XVIII-XIX asr ilmiy tarix davri falsafasi

14. XIX asrning oxiri XX asrning boshidagi tarix falsafasi
15. Mustaqillik yillarida tarix falsafasi va tarixiy davr
16. Tarix falsafasi fani maqsad va vazifalari. Tarix metodologiyasi.
17. Qadimgi dunyo tarixi falsafasi
18. Gerodot tarix falsafasi.
19. N.Makiavelli tarix falsafasi
20. Al-Farobiy va uning ijtimoiy falsafasi. Ibn-Xaldun va uning tarix falsafasi.

V. Ta'lim natijalari (shakllanadigan kompetensiyalar)

Talaba bilish kerak:

- Fan kursining maqsad va vazifalari, O'zbekistonda tarix falsafasi va metodologiyasi, tarixnavislikning shakllanishi va taraqqiyoti, tarix falsafasi va metodologiyasining asosiy bo'limlari, tarix falsafasi va metodologiyasi va uning asosiy yo'nalishlari, tarix falsafasi va metodologiyasining nazariyasini bilishi kerak;
- Talaba mustaqil O'zbekistonda tarix falsafasi va metodologiyasining muammolari va taraqqiyot vazifalari, hozirgi sharoitda O'zbekiston Republikasi Tarix falsafasi va metodologiyasining xususiyatli jihatlarini ilmiy jihatdan o'rganishi, tarix bilimlarini rivojlanishi va o'zgarishlarini aniqlovchi omillar, tarix fanining vujudga kelishiga oid malakalariga ega bo'lishi kerak.

VI. Ta'lim texnologiyalari va metodlari:

Talabalarning ***"Tarix falsafasi va metodologiyasi"*** fanini o'zlashtirib olishlari uchun ***3-kurs talabalariga*** o'qitishning ilg'or usullaridan foydalanish, yangi informasion-pedagogik texnologiyalarni tadbiq qilish muhim ahamiyatga egadir. Fanni o'zlashtirishda darslik, o'quv va uslubiy qo'llanmalar, ma'ruza matnlari, tarqatma materiallar, elektron materiallar, virtual stendlar, jadvallardan foydalaniladi. Dasturda berilgan mavzular ma'ruza, seminar shaklida olib boriladi. Shuningdek, fanning dolzarb masalalari mustaqil ish sifatida talabalarga o'zlashtirish uchun beriladi.

Fan zamonaviy pedagogik texnologiyaning "Bumerang", "Klaster" singari uslublari orqali darslar olib boriladi. Mazkur fanni o'qitish jarayonida ta'limning zamonaviy metodlari, pedagogik va axborot-kommunikatsiya texnologiyalari qo'llanilishi nazarda tutilgan. Dasturda ko'rsatilgan mavzular ma'ruza, seminar shaklida olib boriladi. Shuningdek, fanning dolzarb masalalari talabalarga mustaqil ish sifatida o'zlashtirish uchun beriladi. Dars mashg'ulotlarida zamonaviy pedagogik – texnologiyalarning quyidagi:

- Aqliy xujum;
- Klasterlarga bo'lish;
- Bumerang texnologiyasi;
- Muammoli o'quv texnologiyasi;

- O‘yinli o‘qish texnologiyasi;
- Informatsion va telekommunikatsion ta’lim texnologiyasi;

Shuningdek, slaydlar, multimediya namoyishlarini qo‘llash ham nazarda tutiladi.

VII. Kreditlarni olish uchun talablar:

Fanga oid nazariy va amaliy tushunchalarni to‘la o‘zlashtirish, tahlil natijalarini to‘g‘ri aks ettira olish, o‘rganilayotgan jarayonlar haqida mustaqil mushohada yuritish, ijod qilish va joriy, oraliq nazorat shakllarida berilgan vazifa va topshiriqlarni bajarish, yakuniy nazorat bo‘yicha amaliy ishni topshirish.

VIII. Asosiy adabiyotlar

I. 1 Г.Скирберкк Фалсафа тарихи Тошкент: Ўқитувчи, 2002

2. J.Yaxshilikov.N.Muhammadiyev “Falsafa” Samarqand 2021.

3 Раҳимов И.Ўтамуродов Фанларнинг фалсафий масалалари Тошкент. “Маънавият”2005

4. А.Чорийев Инсон фалсафаси Тошкент 2007

5. С.Йўлдошев, М.Усмонов, Р.Каримов, Г.Қобулниёзова. Г.Рўзматова Янги ва энг янги давр ғарбий Европа фалсафаси XVII-XIX асрлар Тошкент “Шарқ” 2002

IX. Qo‘shimcha adabiyotlar

1.Mirziyoyev Shavkat Miromonovich. Tanqidiy tahlil, qat’iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo‘lishi kerak. Mamlakatimizni 2016-yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning asosiy yakunlari va 2017-yilga mo‘ljallangan iqtisodiy dasturning yeng muhim ustuvor yo‘nalishlariga bag‘ishlangan Vazirlar Mahkamasining kengaytirilgan majlisidagi ma’ruza, 2017 yil 14 yanvar / Sh.M. Mirziyoyev. – Toshkent: O‘zbekiston, 2017. – 104 b.

2.Нарзулла Жўрайев. Тарих фалсафасининг назарий асослари.Т. “Маънавият” 2008.

3.Фалсафа қомусий луғат. –Т.: Шарқ нашриёти матбаа нашриёти, 2004.

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTINING

FARMONI

O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha harakatlar strategiyasi to‘g‘risida. (O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2017 y., 6-son, 70-modda)

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 - yil 6 – noyabrdagi “O‘zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta’lim - tarbiya va ilm - fan sohalarini rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida“-gi PF - 6108 - son farmoni.

Axborot manbaalari

1. http://raqamlitarix.uz
2. http://www.ziyonet.uz
3. http://www.google.scholar.com
4. http://www.history.ru
5. http://www.philosophy.com
6. http://www.archeo.ru
7. http://www.iprbookshop.ru
8. http://3d.философия 3dn.ru/
9. http://www.biblio-online.ru

Fan dasturi Samarqand davlat pedagogika instituti o‘quv-uslubiy kengashining 2025- yil “___” _____ _____-son bayonnomasi bilan ma’qullangan

Fan/modul uchun mas’ullar va dastur mualliflari:

M.Ahrorova ,– Samarqand Davlat Pedagogika instituti Milliy g‘oya va falsafa kafedrasi assistenti.

Taqrizchilar:

U.J.Nurmatova - Samarqand Davlat Pedagogika instituti Milliy g‘oya va falsafa kafedrasi v.b. dotsenti (ichki)

O.G‘aybullayev- Sam.DCHTI Gumanitar fanlar va axborot texnologiyalari kafedrasi professori.

Mazkur fan dasturi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi tomonidan 2025- yil uchun tasdiqlangan xalqaro e’tirof etilgan tashkilotlarning (Quacquarelli Symonds World University Rankings, Times Nigher Education, Academic Ranking of World Universities) reytingida 94 o‘rin egallagan Moskva davlat universiteti Ijtimoiy fanlar fakulteti Falsafa yo‘nalishi (Tarix falsafasi) dasturi tahlil qilinib, ushbu asosda fan dastur ishlab chiqildi. philos.msu.ru›sites/default/files/Рахманкулова

ocs.yandex.ru/docs/view?tm=1756185053&tld=ru&lang=ru&name=Рахманкулова%20История%20философи.pdf&text=философия%20истории%20программа%20мгу&url=https%3A%2F%2Fphilos.msu.ru%2Fsites%2Fdefault%2Ffiles%2F%25D0%25A0%25D0%25B0%25D1%2585%25D0%25BC%25D0%25B0%25D0%25BD%25D0%25BA%25D1%2583%25D0%25BB%25D0%25BE%25D0%25B2%25D0%25B0%2520%25D0%2598%25D1%2581%25D1%2582%25D0%25BE

Fan dastur Pedagogika va jismoniy madaniyat fakultetining 2025-yil 22-apreldagi 9-sonli farmoyish bilan tuzilgan ishchi guruh tomonidan ma'qullangan.

Tuzuvchi: **M.R.Ahrorova**

Kafedra mudiri: **J.Y.Yaxshilikov**

Fakultet dekani: **A.RJo'raqulov**

O'quv-ishlar bo'yicha prorektor: **N.H.Musulmonov**

Samarqand davlat pedagogika instituti "Milliy g'oya va falsafa" kafedrasida tayyorlangan 60111100 – Tarix ta'lim yo'nalishi bakalavr o'tiladigan "Tarix falsafasi va metodologiyasi" fanidan tuzilgan fan dasturiga

TAQRIZ

Falsafa va tarixning tarixiy jarayonda uzviy aloqadorligini, uning shaxs va jamiyat taraqqiyotida ma'naviy-ahloqiy va madaniy dunyoqarashini shakllantirishda qo'shgan hissasini falsafiy ilmiy metodlarini o'zlashtirish bakalavr talabalar uchun juda muhimdir. Shu bois ushbbu fan dasturi oliy ta'lim tizimda 60111100-Tarix ta'lim yo'nalishiga 4-kurs talabalari uchun o'tiladigan "Tarix falsafasi va metodologiyasi" fanining mazmuni va o'tilishi tartibini, talabalar tomonidan o'zlashtirilishi lozim bo'lgan bilim hamda ko'nikmalar hajmini belgilab bergan. Fan bo'ycha tuzilgan bu o'quv dasturi fanning maqsadi, vazifalari, o'quv fani mazmunining qisqa bayoni, talabalarning bilimi va ko'nikmalariga qo'yiladigan talabalar singari bir qator qisimlardan iborat. Xususan o'quv fanning maqsad va vazifalarini belglab berish o'quv dasturining muhim belgisidir. Chunki aynan shu narsa yaratiladigan o'quv darsligi muallifga muayyan nuqtai nazarni tanlash, o'qituvchiga esa pedagogik mo'ljalini to'g'ri belgilash imkonini beradi.

Dastur fanning mazmuni, talabalar bilimi, ko'nikma va malakalariga qo'yilgan talabalar, bo'lajak pedagoglarning kelgusidagi kasb faoliyati uchun mos keladigan nazariy tushunchalarni o'z ichiga olgan.

Dastur Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi tomonidan 2025-yil uchun tasdiqlangan xalqaro e'tirof etilgan tashkilotlarning "Lomonosov nomidagi Moskva Davlat universitetining "Ijtimoiy gumanitar fanlar fakultetida o'tiladigan Tarix va falsafa" fan dasturi tahlil qilinib ushbu asosda fan dastur ishlab chiqildi. "Tarix falsafasi va metodologiyasi" fanining dasturi tayyorlanib 2 ta mavzusi yangilangan.

Shuningdek mustaqil ta'lim shakllari va mavzulari, fanni o'qitish natijalari, ta'lim texnologiyalari va metodlari hamda asosiy qo'shimcha adabiyotlar batafsil bayon etilgan. Talabalarda umumiy dunyoqarashni shakllantirishda falsafa va tarix nisbati haqida oqilona, ilmiy hulosalar chiqara olish qobiliyatini shakllantirish "Tarix falsafasi va metodologiyasi" fanining asosini tashkil etadi.

Ushbu o'quv dasturi mazmuni va tuzilishi jihatdan o'quv dasturlariga qo'yiladigan barcha talablarga javob beradi deb hisoblayman va uni tegishli ta'lim yo'nalishlari talabalari uchun ta'lim jarayonida foydalanishga tavsiya etaman.

SamDChTI Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektori, falsafa fanlari doktori, professor **O.G'aybullayev**